

# INGLIZ TILIDAGI “YOSHLIK” KONSEPTIGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY VA SEMANTIK XUSUSIYATI

Mamatmurodova Sohiba Muhammad qizi

TerDPI Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) mutaxassisligi 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada ingliz xalqi madaniyatida keng qo'llaniluvchi ba'zi bir iboralar va ularning ma'noviy xarakterlari haqida to'xtalib o'tilgan. Hamda shu kabi frazeologik birliklarning xususiyatlari “Yoshlik” konsepti ishtirokidagi iboralar misolida yoritilgan, bir biriga ma'noviy yaqin, o'xshash iboralarning semantik tahlili amalga oshirilgan. Bundan tashqari, frazeologiya bo'limining asosini tashkil etuvchi frazeologik birliklar inson omili bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy tilshunoslikning turli sohalarida tadqiqot obyekti sifatida xizmat qiladi va turli konseptlarni ifodalashda frazeologik birliklar uni ravshan, tushunarli va ta'sirchan usulda ifodalaydi. Hamda frazeologizmlar boshqa tillardagi kabi ingliz tilida ham ushbu xalqning o'ziga xos fikrlash tarzini ko'rsatuvchi stereotip sifatida ifodalanadi.

**Kalit so'zlar:** *ibora, semantik tahlil, “Yoshlik” konsepti, frazeologik ibora, kognitiv lingvistika, turg'un birikma, lingvomadaniy birlik, stereotip.*

**Аннотация:** В статье рассматриваются некоторые широко используемые в культуре английского народа выражения и их духовные характеристики, а также выделяется характеристика таких фразеологизмов на примере выражений с понятием «Молодежь», которые близки друг другу. по смыслу., проведен семантический анализ подобных выражений. Кроме того, фразеологизмы, составляющие основу кафедры фразеологии, служат объектами исследования в различных областях современного языкознания, связанных с человеческим фактором, а фразеологизмы в выражая различные понятия, делает его ясным и понятным.и выражает его впечатляюще. Фразеологизмы выражаются в английском, как и в других языках, как стереотип, показывающий специфический образ мышления этого народа.

**Ключевые слова:** словосочетание, смысловое анализ, концепт «Молодежь», фразеологическое выражение, когнитивная лингвистика, устойчивое сочетание, лингвокультурная единица, стереотип.

**Abstract:** The article discusses some expressions widely used in the culture of the English people and their spiritual characteristics. Also, the characteristics of such phraseological units are highlighted on the example of expressions involving the concept of "Youth", which are close to each other in meaning. , the semantic analysis of similar expressions was carried out. In addition, the phraseological units that form the basis of the department of phraseology serve as objects of research in various fields of modern linguistics related to the human factor, and phraseological units in expressing various concepts make it clear and understandable. and expresses it in an impressive way. Phraseologisms are expressed in English as well as in other languages as a stereotype that shows the specific way of thinking of this people.

**Key words:** *phrase, semantic analysis, concept of "Youth", phraseological expression, cognitive linguistics , stable combination, linguistic and cultural unit, stereotype.*

**Кирish.** Bugungi kunga kelib frazeologiya sohasi tilshunoslikda olib borilayotgan ko‘plab izlanishlarning tadqiqot vositasi sifatida fanda mustahkam o‘rin egallab, uning taraqqiyoti yangi bosqichga ko‘tarildi. Frazelogiya tilning lug‘at tarkibini tashkil etuvchi turg‘un birikmalar, ya‘ni, frazeologizmlarni o‘rganuvchi sohasi bo‘lib, u qadimgi yunon tilidan olingan va “frasis”-ibora, “logos”-tushuncha, ta‘limot demakdir. Frazelogiya fan sifatida shakllangandan beri ko‘p vaqt o‘tgani yo‘q. Dunyo tilshunosligida olimlar XVIII asrdan boshlab frazeologik birliklarni ilmiy asosda o‘rgana boshlashgan.<sup>1</sup> “Frazelogiya atmasini esa, fanga ilk bor fransuz-shveysar tadqiqotchisi Sharl Balli(1865-1947) olib kirgan. Balli o‘zining “Stilistika ocherki”(1905) va “Fransuz stilistikasi”(1909) asarlarida frazeologizmlarni o‘rganib chiqqan. Rus tilshunosi Polivanov ilk bor

---

<sup>1</sup> <https://audiobook.uz/blogs/news/frazeologik-iboralar-va-ularga-misollar>

frazeologiyani alohida fan sifatida o'rganish fikri bilan chiqqan. Sh.Balli semantika frazeologizmlarning mutloq belgisi ekanligini asoslab, quyidagi fikrni ham bildiradi: "Tashqi belgi ichki belgiga nisbatan ahamiyatli va keng qimmatlidir"<sup>2</sup>. Semantik xususiyati Sh.Balli asarlarida mutloq bosh belgi sifatida qaralishi, tarixiy-semantik asoslarining inkor etilishi kabi munozaralariga sabab bo'ldi. Ammo bu qarashlar frazeologiya masalalarini yanada kengroq tadqiq etish, o'rganish va uning alohida fan sifatida shakllanishiga ta'sir o'tkazdi. Sh.Ballining frazeologik tadqiqotlaridan ancha vaqt o'tgandan so'ng frazeologiya tilshunoslikning alohida sohasi sifatida shakllana boshladi va uning turli qirralariga bag'ishlangan frazeologik lug'atlar, ilmiy maqolalar, dissertatsion ishlar, monografik kuzatishlar yuzaga keldi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Tadqiqotchilarning frazeologiya sohasi bilan shug'ullanganiga endi bir necha yuz yil bo'lgan bo'lsada, frazeologik birliklarning yaralishi insoniyat tarixichalik qadimiydir. Bir tilning frazeologiyasini o'rganish orqali ushbu tilda so'zlashuvchi xalqning madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, fe'l-atvori, yurish-turishi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Darhaqiqat, bir tilning frazeologik olami uning madaniyati haqidagi qimmatbaho manbadir. Ingliz tadqiqotchisi Raymond.V.Gibbsning ta'kidlashicha, insonlar kundalik turmush tarzida bir-biri bilan kamdan-kam hollarda badiiy tilda suhbat quradi va ushbu holatda fikrni, ayniqsa, mavhum g'oyalarni ifoda etishda turli ibora va maqollar yordamga keladi.<sup>3</sup> Shunday ekan, turli frazeologik birliklar so'zlovchining nutq uslubini bezovchi lingvistik bezaklargina bo'lib qolmasdan, balki, tilning ajralmas qismi bo'lib, ijtimoiy o'zaro munosabatni yengillashtiradi, Shunday ekan, turli frazeologik birliklar so'zlovchining nutq uslubini bezovchi lingvistik bezaklar emas, balki, tilning ajralmas qismi bo'lib, ijtimoiy o'zaro munosabatni yengillashtiradi, matn uyg'unligini kuchaytiradi, va eng asosiysi,

---

<sup>2</sup> Yoldoshev B. "Fundamentals of Phraseological Methodology" Samarkand State University/; 1999.P-86

<sup>3</sup> D.Geeraerts and H.Cuykens. The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics. Oxford University Press, 2007.

insonning anglatmoqchi bo'lgan fikrini ifoda etishni osonlashtirishga yordam beradi.

Ilk ingliz frazeologizmlarini tahlil qilgan tadqiqotchilaridan biri ingliz rassomi, leksikografi va qadmiy buyumlar hamda xalq og'zaki namunalari to'plovchisi Frensis Gros bo'lib, u butun Angliya hududi bo'ylab kezib, xalq orasida ishlatiladigan, rasman biror hujjatda keltirilmagan ko'plab iboralarni to'playdi va 1785-yilda ular asosida "Dictionary of the vulgar tongue" izohli lug'atini chop ettiradi. Gros xalq orasida kundalik hayotda ko'p qo'llaniladigan bunday iboralarning kelib chiqish tarixi, ishlatilish holatlarini izohlashga harakat qiladi., ishlatilish holatlari ham keltirilgan. Misol uchun, biz bugungi kunda *oddiygina "to die- vafot etmoq"* ma'nosida ishlatadigan, rasman ingliz tili lug'at boyligi tarkibiga kiritilgan "*kick the bucket*" iborasi o'sha davrda noadabiy til qatlamiga kirgan, og'zaki til vositasi sifatida qo'llanilgan "*kick the bucket*" iborasini quyidagicha ifodalaydi: bu ibora 16-asrda paydo bo'lgan bo'lib, uning kelib chiqishi bucket- kushxonada bo'ladigan, hayvonlarni, ( odatda cho'chqalarni ) so'yish uchun oyog'idan osid qo'yiladigan yog'och buyumga borib taqaladi, ma'nosi- o'lmoq. <sup>4</sup> Bu iboraning kelib chiqish sababi kundalik xalq turmush tarzi bilan bog'liq bo'lib, xalqning yashash tarzini ifodalaydi.

**Muhokama va natijalar.** Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bo'lish, kishilarning xilma-xil harakat-holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir. Frazeologizmlar, so'zlar kabi, yaxlit bir ma'no ifodallasada, lekin frazeologik ma'no jihatdan leksik ma'nodan farq qiladi. Frazeologik ma'no qo'shimcha attsenkalardan iborat bo'ladi. Belgi, harakat kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan ma'lumot frazeologik ma'no deyiladi. Masalan: *Endi to'rtinchi rotani ham ratsiya bilan ta'min qilsak, oshiq olchi bo'lardi. Bu yerda ekanizni eshitib, hech narsa ko'zimga ko'rinmadi, uchib bora*

---

<sup>4</sup> Francis Grose, Classical Dictionary of the Vulgar Tongue, London, No 212, High Holborn, 1785.

*golsam dedim*<sup>5</sup>. Birinchi misoldagi frazeologizm belgi, ikkinchi misoldagisi esa harakatni bildiradi. Shu sababli, frazeologizmlar soʻzlarga sinonim boʻlgan hollarda ham frazeologik maʼno bir-biriga teng boʻlmaydi. Frazeologizmlar semantik jihatdan soʻzlardan farqli belgi xususiyatlarga ega boʻlgani uchun ham, tilda paydo boʻlgan va yashab kelmoqda. Oʻzaro bogʻlangan bu soʻzlar mohiyatiga koʻra birikmaga yoki gapga teng boʻladi. Bunday birikma yoki gapdan yaxlitligicha anglashiladigan frazeologik maʼno uni sintaktik birlik deb emas, balki semantik birlik deb qarashga olib keladi. Shu jihatdan quyida ana shunday “Yoshlik” konseptiga oid frazeologik iboralarning semantic hamda lingvomadaniy tahlilini koʻrib chiqamiz:

*1. bloom of youth*<sup>6</sup>

The most enjoyable or successful time of one's youth, likened to the bloom of a flower being its most prominent and beautiful moment. Ushbu ibora oʻzbek tilidagi yoshlik –oltin davr iborasiga ekvivalent boʻlib, yoshlikning eng quvnoq davr ekanligiga urgʻu beradi hamda ushbu ibora ,asosan, yoshi ulugʻ insonlarning tilida koʻp foydalaniladi.

*2. fountain of youth* (Anything reputed or promising to restore one's youth, vitality, or health, or at least the appearance there of.) iborasi hech narsa bu dunyoda boshqa qaytib kelmaydi sogʻliq ham, goʻzallik ham shu oʻrinda yoshlik ham degan maʼnoni anglatadi va aksariyat hollarda tanbeh berish maʼnosida qoʻllaniladi. Buni quyidagi misoldan ham anglash mumkin.

*At the age of 60, your grandmother looks fantastic! She must have discovered the fountain of youth. The way they advertise these skincare products makes you think each one is the fountain of youth or something.*

Berilgan ibora fountain of youth iborasi bilan maʼnoviy bir xil boʻlsada, ular orasida graduonimik munosabat borligi bilan farqlanadi. Yaʼni har ikki ibora ham

---

<sup>5</sup> Sh. Rahmatullayev's monograph entitled "Some issues of Uzbek phraseology". Tashkent-1966. 264 pages.

<sup>6</sup> UZBEKISTAN STATE UNIVERSITY OF WORLD LANGUAGES. A.L. YUSUPOV DICTIONARY OF ENGLISH-UZBEK IDIOMS. TASHKENT, 2014

ma'noviy o'xshashlikni kasb etadi ammo nutq jarayonidagi bo'yoqdorlik jihatdan darajalanadi.

*Growing youth has a wolf in his belly (Young people who are growing seem to be hungry all the time) iborasi*–yoshlar serg'ayrat, ildam, harakatchan, jismoniy faolligi yuqori bo'lganligi sababli ochlik hissini tezroq sezishadi degan ma'noda qo'llaniladi. Masalan: *My teenage son has eaten very last bit of food in the house. I guess it is true that a growing youth has a wolf in his belly.*

*Youth is wasted on the young* iborasi – yoshlikning qadrini keksayganda bilasan degan ma'noda ishlatiladi. Masalan: *all the time and energy these kids have at their disposal, and they would rather sit around all day watching TV instead of exploring the world around them. Youth is wasted on the young.*<sup>7</sup>

*Old head on young shoulders* iborasi esa aqlli, tengdoshlariga nisbatan ziyrak bo'lgan yoshlarga qarata ishlatiladi va bu ibora, asosan, yoshlar orasida keng tarqalgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, ingliz tilshunosligida frazeologiya sohasi ko'p yillardan beri jahon tadqiqotchilarning turli ilmiy ishlarida har jihatdan yoritilayotgan bo'lishiga qaramay, bu soha hali to'liqliligicha o'rganilib bo'lingan emas. Nafaqat tilshunoslik, balki lingvomadaniyatshunoslik sohasi uchun ham yangi bo'lgan “Yoshlik” konsepti tushunchasi doirasida frazeologik birliklarni, ingliz tilida talqin etish, ular yuzasidan olib borilgan ilmiy ish, nazariyalarni tahlil etish, ularga tayangan holda, bu xalqning til va madaniyat bog'liqliklarini ochib berish tilshunoslik uchun ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1.D.Geeraerts and H.Cuykens. The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics. Oxford University Press, 2007.

2.Francis Grose, Classical Dictionary of the Vulgar Tongue, London, No 212, High Holborn, 1785.

---

<sup>7</sup> <https://idioms.thefreedictionary.com/youth>

3. UZBEKISTAN STATE UNIVERSITY OF WORLD LANGUAGES. A.L. YUSUPOV DICTIONARY OF ENGLISH-UZBEK IDIOMS. TASHKENT, 2014
4. Yoldoshev B. "Fundamentals of Phraseological Methodology" Samarkand State University; 1999. P-86
5. Sh. Rahmatullayev's monograph entitled "Some issues of Uzbek phraseology". Tashkent-1966. 264 pages.
6. <https://idioms.thefreedictionary.com/youth>
7. <https://audiobook.uz/blogs/news/frazeologik-iboralar-va-ularga-misollar>